



OZ KOMPLEKTLI MAKTABDA MATEMATIKADAN BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING XUSUSUYATLARI

Umirbaeva Ulzada Maratovna

Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich fakultet talabasi

Annotatsiya. Oz komplektli maktabda matematika darslarini tashkil etish alohida e`tibor talab etadigan yo`nalish hisoblanadi. Ayniqsa boshlang`ich ta`lim matematika darslari yuqori samaradorlikka ega bo`lishi lozim. Maqolada ushbu vazifani amalgal oshirish metodologiyasi, yo`nalishlari muhokama etiladi.

Kalit so`zlar: boshlang`ich sinf, matematika, maktab, metod, vosita.

KIRISH

Hozirgi zamon boshlang`ich ta`limining o`ziga xos asosiy jihat shundaki, unda beriladigan ma'lumot mazmuni deyarli barqaror darslikka asoslanishidir. Darsliklar oz komplektli maktablar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Darslik — bu asosiy mazmuni jiddiy sistemada tushunarli qilib bayon qilingan kitob. Darslikning asosiy vazifasi o`quvchilarga mustaqil bilim olishlarida yordam berishdir. Darslik — o`quvchilar uchun mo`ljallangan asosiy va zaruriy o`qitish vositasidir. Matematika darsligi dasturga mos tuzilib, uning talabiga javob beradi va har qaysi masala qay darajada qaralishi kerakligi ko`rsatiladi.

Matematika o`qitishda harakatli dinamik qo`llanmalarga, individual ko`rsatma — qo`llanmalar va didaktik materiallarga keng o`rin beriladi. Ko`rsatma — qo`llanmalar: natural va tasviriy bo`ladi. Natural ko`rsatmalilik: turmushda uchraydigan atrofimizdagi narsalar: daraxtlar, qalamlar, cho`plar, kubchalar. Sannoq cho`plar eng muhim va keng qo`llaniladi, ulardan nomerlashni o`rganishda; sannoq birliklarini hosil bo`lishi haqida tasavvur oladilar.

Tasviriy ko`rsatmalilik ham bir necha turga bo`linadi.

a) Matematik simvollar (raqam, ishoralar, munosabat belgilari). Bunday belgi, raqamlar katakli taxtacha va saqlash kassalari bilan birga o`quv — texnika sanoati yoki o`quvchilar qo`li bilan ishlab chiqariladi, bular yordamida sonlarni raqamlar bilan tasvirlash, sonlarni taqqoslash natural sonlar qatori xossalari o`rganiladi, misol masalalarning yechimlari yoziladi. M: $5 + x = 7$ tenglamani kiritish.

b) Ko`rsatma rasmlar. Ularni nashriyotlardan yoki qo`lda tayyorланади, har bir rasmda bitta narsaning rasm (mevalar, gullar...) bo`ladi. rasmlar qirqilib konvertda saqlanadi, asosan ulardan birinchi 10 lik sonlarni o`rgatishda foydalaniladi. Bundan tashqari, ulardan hisoblash usullari, amal xossalari bilan tanishishda ham foydalanish o`rinli va qulay. $(2+3)+4$.



c) Geometrik figuralar modeli. Obyekt shaklini to‘g‘ri idrok qilish, predmet shaklini abstraktlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun o‘quvchilar figuralarning modellarini kuzatish bilan birga o‘zлari ham shunday modellarni mustaqil yasashlari juda muhimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O‘qitish metodlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning birqalikdagi faoliyatini tashkil kilish, rag‘batlantirish va nazorat qilishni nazoratda tutadi. Shuning uchun ular uchta gruppaga bo‘linadi:

- I. O‘quv-bilish faoliyatini tashkil kilish metodi.
- II. O‘quv-bilish faoliyatini ragbatlantirish metodlari.

III. O‘quv-bilish faoliyatini samadorligini nazorat qilish metodlari. O‘quv-bilish faoliyatini tashkil kilish metodlari bir necha gruppaga bo‘linadi:

1. O‘quvchilar bilim oladigan manbalar uyinga: Og`zaki, ko`rsatmali, amaliy metodlar.
2. O‘quvchi fikrining yo‘nalishi buyicha: induksiya, deduksiya, analogiya.
3. Pedagogik ta’sir boshkarishning darajasi, O‘quvchilarning o‘qishida mustaqillik darajasi buyicha: O‘qituvchi boshchiligidagi bajariladigan O‘quv ishi metodi. O‘quvchilarning mustaqil yillari metodi. O‘quvchilarning mustakil aktivliklari darajasi buyicha: Izohli-illustrativ, reproduktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodi.

O‘quvchilar bilim oladigan manbalar bo`yicha: Og`zaki, ko`rsatmali amaliy metodlar.

1) Og‘zaki metodlar qisqa muddat ichida hajmi buyicha eng kup informatsiya berish, o‘quvchilar oldiga jumboqlar qo‘yish ularni hal qilish yo‘llarini ko`rsatishi imkonini beradi.

Bu metodlar o‘quvchilarni tafakkurini rivojlanishiga sharoit yaratadi.

A) Tushuntirish: Bilimlarni tushuntirish metodi shundan iboratki, bunda o‘qituvchi materialni bayon kiladi, O‘quvchilar esa uni ya’ni bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi. O‘quv materialining bayon aniq, tushunarli, qisqa bo‘lishi kerak. Tushuntirish metodidan ma’lumotlar tarikasidagi nazariy materiallar bilan tanishtirish, o‘quvchilarga o‘quv qurollarini ishlatish buyicha yo‘l-yuriqlarni berishda foydalilanadi. Boshlang‘ich matematika kursining bir qator masalalarini tushuntirish bilan bayon kilish zarurdir.

Masalan: uchburchakni tushuntirishda o‘qituvchi qog‘ozdan qirqilgan har-xil ko`rinishidagi, rangdagi, kattalikdagi uchburchaklardan foydalananadi. Bular



uchburchaklar, ular bir-biridan farq qilsada, hammasini esa kesmadan iboratligi burchagini esa uchburchakning bir bo‘rchagini o‘zib olish bilan tushuntiriladi.

B) Suhbat: bu eng ko`p tarqalgan va yetakchi o‘qitish metodlaridan bulib, darsining har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarida qo`llanilishi mumkin, ya’ni yangi materialni bayon etishda, mustahkamlashda, takrorlashda uyga berilgan topshiriqlarni, mustaqil ishlarni tekshirishda qo`llanilishi mumkin.

Suhbat – bu o‘qitishning savol-javob metodidir, bunda o‘qituvchilar O‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirilganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda maxsus tanlangan savollar sistemasi va ularga beriladigan javoblar yo`li bilan O‘quvchilarni qo‘yilgan ta’limiy va tarbiyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi hamda oz komplektli maktabda matematika rivojiga olib keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib oz komplektli maktab boshlang‘ich sinf matematika darslarida elektron texnik vositalar: proektor, elektron doska, kompyuterlardan foydalanish bugungi kun ta’lim sifati talablaridan biri ekanligi sir bo‘lmagan holda undan foydalanish, ya’ni, boshlang‘ich sinflar matematika darslari mashg‘ulotlariga olib kirishga hamma ham jur’at qilayotgani yoki imkoniyat topa olayotgani yo‘q. Ta’lim vositalarining qaysi turi, qaysi ta’lim bo‘g‘imida qo‘llanmasin o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan vosita bo‘lsa, albatta samarasi doim yuqori bo‘lgan. Chunki tinglovchi faqat eshitmaydi, balki eshitayotgan voqelikni ko‘radi (to‘liq yoki qisman), mushohada qiladi, fikrlaydi, solishtirib taxlil qiladi, xulosalar chiqaradi. Shunday ekan, hayotning mazmuni butun borliqdagi mayjud holat bo‘lsa, ta’lim mazmuni vositaning turli-tuman shakl va mazmundaligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Anikeeva N.B. O‘yin orqali ta’lim. – M., 2017 yil
2. Abdurahmonova.N, Jumaev.M, O‘rinboeva — Boshlang‘ich sinflar uchun matematikadan didaktik materiallar. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. — T.: Istiqlol. 2014 yil,152 bet
3. Babkina N.V. O‘quv jarayonida o‘quv o‘yinlari va mashqlardan foydalanish // Boshlang‘ich maktab, 2018, № 4.
4. Vygotskiy L. S. O‘yin va uning bolaning aqliy rivojlanishidagi o‘rni. Psixologiya savollari, 2016.-6-sон. 46-bet.
5. Gubanova O.V., Levkina I.S. Darslarda o‘yin texnikasidan foydalanish. Boshlang‘ich maktab, 2017 yil, 6-son
6. L.Sh. Levenberg, I.G. Ahmadjonov, A. N. Nurmatov. "Boshlangich sinflarda matematika o‘kitish metodologiyasi." 2015 yil. Toshkent. Oqituvchi.